

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI  
BUYRUQ

2018-yil 05 iyun

395-ij

4-§

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2017-yil 22-martdagi PQ-2848-son qarori  
ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-martdagi “Xalqaro rivojlantirish Assotsiatsiyasi ishtirokida oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2848-sonli qarori ijrosining bajarilishi va “Ilm-fan-2020” dasturini amalga oshirish bo‘yicha vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan “Nazorat reja”da belgilangan vazifalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 20-apreldagi 2/3-hay’at qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-martdagi PQ-2848-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Jahan banki kredit mablag‘lari hisobidan oliy ta’lim muassasalarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va o‘quv laboratoriyalari uskunalar bilan ta’minlash hamda “Ilm-fan-2020” dasturini amalga oshirish bo‘yicha vazifalar ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 2/3-hay’at qarorida belgilangan vazifalar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu “Hay’at qarori”da belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilsin:

**bir hafta muddatda** professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tinglovchilar va talabalarga xalqaro ma’lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlari (ARMda internet tizimiga ulangan kompyuter sinflari, har bir kafedradan kirish) yaratilsin hamda barcha AKT jihozlarining texnik tavsiflari qayta ko‘rib chiqilsin;

**Mas’ullar:** moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (**I.Raxmanov**), axborot texnologiyalari markazi (**A.Abdullahayev**).

**ikki oy muddatda** barcha professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tinglovchilar va talabalar uchun seminar-trening o‘tkazilsin, ularning har biri resurslardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar bilan ta’milansin;

**Mas’ullar:** ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi, fakultet “Yosh olimlar”kengashi raislari.

**bir hafta muddatda** barcha fakultetlarda faoliyat yuritayotgan har bir kafedrada xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasidan foydalanishni tashkil etish va uning monitoringini olib borish bo‘yicha mas’ullar belgilansin hamda har oyning 25-sanasiga qadar monitoring natijalari yuzasidan ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limiga hisobot taqdim etish yo‘lga qo‘yilsin;

**Mas’ullar:** fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidan foydalanishni tashkil etish va uning monitoringini olib borish **kafedra mudirlari**, axborot texnologiyalari markazi boshlig'i (**A.Abdullayev**) hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i (**A.Safarov**)ga yuklatilsin;

universitet professor-o'qituvchilarining yillik reytingini aniqlashda, lavozimlarga tanlovlardan o'tkazishda xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan tizimli samarali foydalanishiga e'tibor qaratilsin;

**Mas'ullar:** fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

bajarilayotgan doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishlarini tayyorlashda xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalari materiallaridan tizimli foydalanish tashkil etilsin va ularni foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida qayd etilishi nazoratga olinsin;

**Mas'ullar:** fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

axborot-resurs markazi direktori (**M.A.Nasrullayeva**)ga xodimlarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidan foydalanish va ilmiy jurnalni xalqaro nufuzini oshirishga tayyorlash bo'yicha seminarlarda ishtirokini ta'minlash yuklatilsin.

**ikki oy muddatda** ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi negizida Scopus va ScienceDirect xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasidan foydalanish bo'yicha "Maslahat markazi" tashkil etilsin va doimiy ravishda faoliyat olib borishi ta'minlansin;

**Mas'ul:** ilmiy ishlar bo'yicha prorektor (**H.Xushvaqtov**).

**bir hafta muddatda** universitet ilmiy jurnalni tahririyati, tahrir-nashr bo'limi xodimlarini Scopus tizimiga jurnalni kiritishga tayyorlash bo'yicha qiyidagi Ishchi guruh tuzilsin

| <b>Nº</b> | <b>F.I.Sh.</b> | <b>Lavozimi</b>                    |
|-----------|----------------|------------------------------------|
| 1.        | H.Xushvaqtov   | f.-m.f.n., dots., rais             |
| 2.        | A.Nasimov      | k.f.d., prof., rais o'rribosari    |
| 3.        | B.Xo'jayorov   | f.-m.f.d., prof., rais o'rribosari |
| 4.        | I.Ikromov      | f.-m.f.d., prof., a'zo             |
| 5.        | N.Muxamadiyev  | k.f.d., prof., a'zo                |
| 6.        | S.Karimov      | fil.f.d., prof., a'zo              |
| 7.        | J.Yaxshilikov  | fal.f.d., prof., a'zo              |
| 8.        | E.Kurtaliyev   | f.-m.f.d., prof., a'zo             |
| 9.        | B.G'oibov      | t.f.d., dots., a'zo                |
| 10.       | Z.Ismailov     | b.f.d., prof., a'zo                |
| 11.       | B.Safarov      | i.f.d., prof., a'zo                |
| 12.       | A.Yarmuxamedov | f.-m.f.n., dots. a'zo              |
| 13.       | A.Safarov      | f.-m.f.b.PhD, a'zo                 |

**ikki hafta muddatda** Ishchi guruh tomonidan Scopus tizimiga kiritish bo'yicha jurnallarga talablar aniqlashtirilsin va universitet ilmiy jurnalini yuqori impakt-faktorga erishishi bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilsin;

**bir oy muddatda** Ishchi guruh tomonidan universitetning ilmiy jurnalini Scopus tizimiga kiritish bo'yicha talablarni o'rgatish va jurnalni maqsadli tayyorlash bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilsin;

**bir hafta muddatda** Ishchi guruh tomonidan universitetni Times Higher Education va QS reyting agentliklari ro‘yxatiga kiritish uchun “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilsin va unda belgilangan vazifalarning sifatli ijrosini qat’iy nazorati o‘rnatilsin.

**ikki oy muddatda** Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi (**A.Safarov**)ga universitetni xalqaro reyting agentliklari tomonidan ro‘yxatga olinishini ta’minlashga qaratilgan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilsin.

3. Mazkur buyruqni o‘z vaqtida tegishli mas’ullarga yetkazish devonxona mudiri **A.Djabborovga** yuklatilsin.

4. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor **H.A.Xushvaqtov** zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i **A.Safarov** tayyorlagan buyruq loyihasi, moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor **I.Raxmanov**, katta yuriskonsult **I.Buriyev** roziligi, ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor **H.Xushvaqtovning** munosabat belgisi.

**Rektor**

**R.Xalmuradov**

